



Samarqand viloyat statistika boshqarmasining kengaytirilgan

Kengash yig‘ilishi

BAYONI № ____

2026-yil ____-may

Samarqand sh.

Raislik qiluvchi: Sh.A.Qudratov –Boshqarma boshlig‘i v.b.

Qatnashdilar: J.A.Ulashev, M.A.Salimov- boshqarma boshlig‘i o‘rinbosarlari

Kengash a‘zolari, boshqarma va tuman (shahar) statistika bo‘lim boshliqlari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

I. Kirish so‘zi

(Boshqarma boshlig‘ining 2026-yil I-chorakdagi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha qisqacha axboroti)

II. “2026-yil uchun statistika ishlarini tayyorlash dasturi”ni I-chorakdagi ijrosi, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar hamda ijro intizomi holati to‘g‘risida.

-boshqarma tizimida 2026-yilning I-choragida statistika faoliyatini tashkil etish ishlari samaradorligi hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar to‘g‘risida;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-22-son Farmonlarida belgilangan vazifalarning 2026-yil I-choragidagi ijrosi tahlili;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-117-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi ““Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga

oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi;

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-51-son Farmoni ijrosi.

III. Viloyatda 2026-yilda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbiri bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligi, mavjud tizimli muammolar va ularni hal etish vazifalari to'g'risida.

IV. Boshqa masalalar.

Boshqarma Kengash yig'ilishida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari hamda Milliy statistika qo'mitasi topshiriqlari Samarqand viloyati statistika boshqarmasiga berilgan topshiriqlarning 2026-yilning I-chorak ijrosi yakunlari ko'rib chiqilib, kun tartibidagi navbatdagi masala muhokamasiga o'tilishi e'tirof etildi.

Kun tartibiga muvofiq, viloyat statistika boshqarmasi tizimida 2026-yilning I-choragida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to'xtalib o'tildi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning viloyatni rivojlanishdagi hissasini tavsiflovchi statistik materiallarning chuqur kompleks tahlili uchun viloyat statistika organlarining roli va javobgarligini oshirish hamda statistika sohasida islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, tizimda transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori ijrosiga muvofiq, amalga oshirilayotgan ishlar, erishilgan natijalar hamda tuman va shahar statistika bo'limlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar batafsil muhokama qilindi.

Ta'kidlandiki, 2026-yil uchun statistika ishlarini tayyorlash dasturi (keyingi o'rinlarda - Dastur) Milliy statistika qo'mitasining 2025-yil 29-dekabrda 116-sonli buyrug'i asosida boshqarmaning 2025-yil 30-dekabrda 106-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Dasturga muvofiq, 2026-yilning yanvar-mart oylarida jami 253 ta statistika ishlari belgilangan muddatlarda va to'liq, hajmda bajarildi.

Boshqarma tomonidan, iqtisodiyot sohalari hamda tarmoqlari rivojlanishi maqsadli kompleks dasturlari monitoringi uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib, hududlar hamda iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistika ma'lumotlari har oyda viloyat hokimligi va tegishli tashkilotlarga taqdim etib borildi.

Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dastlabki yakunlari bo'yicha statistika ma'lumotlari tayyorlanib, viloyat hokimligi va tegishli tashkilotlarga taqdim etildi.

2026-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha "Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati" axborotnomasi (doklad) chop etilib, viloyat hokimligi va tegishli tashkilotlarga yuborildi.

Statistika dasturiga muvofiq, bajarilgan ishlar natijalariga ko'ra shakllantirilgan ochiq, statistika ma'lumotlari, axborotnomalar, to'plamlar,

ko‘rinishida hamda ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali muntazam ravishda foydalanuvchilar e‘tiboriga yetkazib berildi.

Boshqarmaning rasmiy veb-saytining “Ochiq ma‘lumotlar” bo‘limida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, milliy hisoblar, narx va indekslar, sanoat, qishloq xo‘jaligi, aholi turmush darajasi va boshqa qator statistika yo‘nalishlari bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plamlari e‘lon qilindi.

Statistika ma‘lumotlari sifatini oshirish borasida, hisobot topshiruvchi subyektlar o‘rtasida profilaktika tadbirlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2026-yil yanvar-mart oylarida viloyatning barcha hududlarida 6612 ta respondentlarga tushuntirishlar, 1180 ta yangi tashkil etilgan respondentlar profilaktika tadbirlari davomida qamrab olindi, 5072 dan ortiq bukletlar tarqatildi va 54 marta ommaviy axborot vositalarida chiqishlar tashkil etildi.

Yig‘ilishda, boshqarmaning tarmoq bo‘linmalari hamda tuman va shahar statistika bo‘limlari boshliqlari hisobotlari eshitilib, kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan rahbarlarning shaxsiy javobgarligi belgilandi va mazkur yo‘nalishlarda ishlarni yanada faollashtirish hamda nazorat ishlarini kuchaytirish yuzasidan aniq vazifa va topshiriqlar berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi “Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-117-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31 maydagi ““Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalarning so‘zsiz ijrosini ta‘minlash, ijro intizomini yanada mustahkamlash bo‘yicha tizimda zarur choralar ko‘rilmoqda.

Boshqarmada va uning hududiy bo‘limlarida hujjatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, har bir nazoratdagi hujjat bo‘yicha ijrochilarni va ijro muddatlarini aniq belgilash va hujjatlar ijrosi yuzasidan “edo.ijro.uz” dasturi orqali kunlik nazorat olib borilmoqda.

2026-yilning yanvar-mart oylarida boshqarmaga jami 232 ta hujjat kelib tushgan bo‘lib, ularning 63 tasi Milliy statistika qo‘mitasidan, 73 tasi viloyat hokimligidan, 81 tasi korxona tashkilotlardan hamda 15 tasi XDFU xujjatlardir. Ushbu korrespondensiyalar “edo.ijro.uz” dasturiga kiritilib, ijrosi kunlik nazoratga olingan.

Rahbarlik va ijro uchun kelib tushgan 49 ta hujjatlarning 25 tasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, 17 tasi qarorlari, 7 tasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlaridan iborat.

Viloyat statistika boshqarmasining 81 ta buyruqlari, 4 ta chora-tadbirlar va nazorat rejalari ishlab chiqilib ijroga qaratilgan.

“Ijro.gov.uz” tizimida jami 270 ta hujjat kelib tushgan bo‘lib, ushbu hujjatlarning 254 tasi ijrosi bajarilgan va 16 tasi nazoratga olingan va ijrochilar tomonidan bajarilmoqda.

Jumladan, “Ijro.gov.uz” ijro intizomining idoralararo yagona elektron tizimi orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, Qaror, Farmoyish va bayonlarining ijrosi tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra joriy yilning I-choragi

davomida jami 20 ta topshiriq bandlari bajarilgan.

2026-yilning I-choragida jismoniy va yuridik shaxslardan 30 murojaatlar kelib tushgan bo'lib, shundan, 1 tasi elektron pochta orqali, 9 tasi og'zaki murojaatlar va qolgan 20 tasi to'g'ridan to'g'ri kelib tushgan.

Boshqarma tizimiga bevosita kelib tushgan 30 ta murojaatlardan 27 tasi ijobiy hal etilgan, 3 ta murojaatga tushuntirish berilgan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-51-son Farmoni aholi bilan davlat organlari o'rtasida ochiq va samarali muloqotni ta'minlash, fuqarolarning murojaat qilish huquqini to'liq amalga oshirish orqali ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokini yanada kengaytirish, shuningdek, Xalq qabulxonalari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan.

Yig'ilish davomida Farmonda yuklatilgan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash zarurligi qayd etildi hamda bu borada mas'ul shaxslarga tegishli topshiriqlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi "Milliy statistika tizimi mutaxassislari malakasini oshirish hamda sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etishni yanada jadallashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-103-son qarorida berilgan topshiriq ijrosi bo'yicha boshqarmaga edo.ijro.uz tizimi orqali jami 2 ta topshiriq kelib tushgan bo'lib, 2 tasi ham viloyat hokimligi topshiriqlaridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son qarori bilan belgilab berilgan vazifalar ijrosi bo'yicha tegishli tadbirlar o'z vaqtida amalga oshirib kelinmoqda.

Xodimlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatini shakllantirish maqsadida 12 ta seminar, targ'ibot yig'ilishlari o'tkazildi. Mazkur tadbirlar davomida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishga qaratilgan tarqatma materiallar yani flaeer va qo'llanmalar tarqatildi.

Kun tartibiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-21-son hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" PF-22-son Farmonlari mazmun-mohiyati va ularda belgilangan ustuvor vazifalar yuzasidan atroflicha to'xtalib o'tildi.

2026-yilda o'tkazilgan aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish natijalari, Shuningdek istiqboldagi "Biznesni ro'yxatga olish" (Economic Census) tadbiirlari SPI indeksi ko'rsatkichlarini yaxshilashning strategik asosi bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yirik statistik kuzatuvlar orqali quyidagi natijalarga erishish ko'zda tutilgan:

Ma'lumotlar qamrovining kengayishi: Ma'muriy manbalarda mavjud

bo'lmagan ko'rsatkichlarni to'liq shakllantirish;

Sifat va ishonchlilik: Birlamchi ma'lumotlarni GIS va idoraviy integratsiya orqali verifikatsiya qilish;

SPI indeksiga ta'sir: Indeksning "Ma'lumot manbalari" va "Ma'lumot mahsulotlari" yo'nalishlari bo'yicha mamlakat reytingini sezilarli darajada oshirish.

Ushbu tadbirlar yakunlari bo'yicha Milliy statistika tizimida ma'lumotlarning representativligi xalqaro standartlar darajasiga ko'tariladi.

Yig'ilishda boshqarma boshlig'i kun tartibining navbatdagi masalasi yuzasidan to'xtalib, O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida" va "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonunlariga muvofiq aholining demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, yashash darajasi va farovonligi, qishloq xo'jaligi holati va tarkibi, shuningdek aholini ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash istiqbolini baholash tizimini yaratish uchun zarur ma'lumotlar bazalarini shakllantirish ishlari olib borilayotgani ta'kidlandi.

2026-yilning 5-13 yanvar kunlari 6350 dan ortiq "mahalla yetiligi" xodimlari yo'nalishlar bo'yicha kichik guruhlariga bo'lingan holda 3-bosqichda amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

O'quv jarayoni davomida, ro'yxatga olish ishlarida ishtirok etuvchi shaxslarni tayyorlash maqsadida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalaridan 5 nafar yuqori malakali psixolog-o'qituvchilar tanlab olinib, o'qitish jarayonida ishtirok etdilar.

O'z navbatida, nazoratchilar va ro'yxatga oluvchilar uchun o'quv-uslubiy materiallar takomillashtirilib, joylarga o'z vaqtida yetkazildi. Hududiy bo'limlar orqali "mahalla yetiligi" xodimlarini zarur jihozlar bilan ta'minlash ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 4,3 ming dona maxsus sumka, ro'yxatga olish bo'yicha qo'llanmalar hamda 4,3 mingga yaqin QR-kodli identifikatsiya belgiklari tayyorlanib, joylarga tarqatildi.

Shuningdek onlayn ro'yxatdan o'tish davri mobaynida oliy ta'lim muassasalaridan ro'yxatga olish jarayonida volontyor sifatida jalb etiladigan talabalar, korxona va idoralar hamda ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan korxonalar xodimlari onlayn ro'yxatdan o'tish tartibi bo'yicha o'qitildi.

Bundan tashqari, korxona va idoralar xodimlariga **census.stat.uz** platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tish jarayonlarida foydalanish bo'yicha maxsus tayyorlangan 22 nafar trener tomonidan muntazam amaliy yordam ko'rsatib borildi.

2026-yilning 15-31-yanvar kunlari aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olishning onlayn bosqichi bo'lib o'tdi. Ushbu bosqichni sifatli tashkil etish maqsadida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish imkonini beruvchi **<https://census.stat.uz>** manzilidagi ro'yxatga olish axborot tizimi, belgilangan tartibda amaliyotga joriy etildi.

2026-yil 4-28 fevral kunlari "mahalla yetiligi" xodimlari tomonidan uy-yaqin yurib ro'yxatga olish ishlari to'liq yakunlandi. Shuningdek planshet qurilmalari

orqali respondentlar yashaydigan (vaqtincha bo'lib turgan) turar joy va noturar joylar, binolarga tashrif buyurgan holda so'rov o'tkazish ishlari to'liq ta'minlandi.

Ikkinchi bosqich yakunlariga ko'ra, 2026-yil 28-fevral holatiga dastlabki ma'lumotlarga asosan viloyat bo'yicha tashkiliy rejada belgilangan hamda GIS bazada geografik koordinatalari aks ettirilgan manzillar toliq ro'yxatga olindi.

Aholini ro'yxatga olishning strategik ahamiyati keng targ'ib etilib, fuqarolarning mazkur jarayondagi faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan tizimli axborot-tushuntirish ishlari olib borildi.

Targ'ibot ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari va raqamli mediada uzluksiz axborot qamrovi ta'minlandi.

Xususan, internet-nashrlar, ijtimoiy tarmoqlardagi keng auditoriyali sahifalar hamda boshqa media manbalarda 1299 ta material, bosma nashrlarda 20 dan ortiq maqola chop etildi, radiokanallarda esa 30 dan ortiq eshittirish efirga uzatildi.

Shu bilan birga, aholi gavjum hududlarda tapg'ibot samaradorligini oshirish maqsadida 50 ta bozor, 18 ta oliy ta'lim muassasasi, 14 ta jamoat transporti vositalari va bekatlari, 11 ta vokzal, 1 ta aeroport, 38 ta savdo markazi hamda 109 ta davlat tashkilotida ro'yxatga olish tadbirlariga oid plakatlar o'rnatildi va roliklar namoyish etildi.

Shuningdek, viloyatning 60 ta nuqtasida asosiy targ'ibot bannerlari o'rnatildi, 21 ta nuqtadagi LED monitorlar orqali videomateriallar namoyish etildi.

Olib borilgan tapg'ibot ishlari natijasida aholining ro'yxatga olish jarayonlari bo'yicha xabardorligi oshirilib ularning faol ishtirokini ta'minlashga erishildi.

2026-yil mart oyida ro'yxatga olish natijalarining aniqligi va to'liqligini baholash maqsadida, ro'yxatga olishdan keyingi nazorat kuzatuv (PES)ni o'tkazish bo'yicha kompleks tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. PES tanlanma kuzatuv usuli asosida tashkil etildi.

Tanlanmani shakllantirish O'zbekiston Respublikasi Kadastr agentligi hamda Milliy statistika qo'mitasi tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan, turar joy obyektlarining GIS koordinatalariga asoslangan mustaqil geoaxborot ma'lumotlar bazasi orqali amalga oshirildi.

Boshqarmaning konsalting xizmatlaridan kelib tushgan mablag'lari hamda faoliyatning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) to'lovlarini belgilangan muddat hamda tartibda amalga oshirilganligi yuzasidan hisobotlar tinglandi.

Kengash yig'ilishi kun tartibidagi masalalarni muhokama qilib,

QAROR QILADI:

1.Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati hujjatlari hamda Milliy statistika qo'mitasining topshiriqlarida viloyat statistika boshqarmasi tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan belgilab berilgan vazifalarning statistika organlarida 2026-yil I-choragi va viloyat statistika boshqarmasining "2026-yil uchun I-yarim yillik ish rejasi" ijrosi bo'yicha boshqarma boshlig'i o'rinbosari J.Ulashevning hisoboti;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat

taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-21-son hamda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari hamda "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida" PF-22-sonli Farmonlari yuzasidan berilgan axborot;

Viloyat statistika boshqarmasi faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish, kadrlar bilan ishlash va ularning malakasini oshirish, moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holati to'g'risida boshqarma boshlig'i o'rinbosari M.Salimovning hisoboti.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni ijrosi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori ijrosi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida" PF-173-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" 629-son qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar holati to'g'risida boshqarma boshlig'i o'rinbosari M.Salimovning hisoboti;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-51-son Farmoni ijrosi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi "Milliy statistika tizimi mutaxassislari malakasini oshirish hamda sohaga raqamli texnologiyalami joriy etishni yanada jadallashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-103-son qarori ijrosi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 6-martdagi "Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida "O'zbekistonda statistika tizimi salohiyatini mustahkamlash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 113-son qarori ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-117-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi "“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash, ijro intizomini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari

axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4366-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-81-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi to'g'risidagi axboroti;

2. Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassis (F.Sattarov) boshqarma Kengash yig'ilishlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son, PF-22-son hamda 2026-yil 28-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-51-son Farmonlari ijrosi doirasida boshqarma tizimida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan axborot kiritib borsin.

3. Statistik axborotlarni tayyorlashning zamonaviy usullari va metodikalarini joriy etish, statistik hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish hamda statistik tahlillarni amalga oshirish bo'yicha boshqarma bo'linmalari hamda tuman va shahar statistika bo'limlari faoliyati **samaradorligini oshirish zarur deb hisoblansin.**

4. Boshqarmaning tegishli tarmoq bo'limlari hamda tumanlar va shahar statistika bo'limlari quyidagi topshiriqlar ijrosi ta'minlansin:

a) xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha:

-12 korxona (oylik), 4 transport (choraklik) va 1 korxona (yillik) hisobotlarida xizmatlar hajmi hamda yuk va yo'lovchi tashish ko'rsatkichlarini tanqidiy tahlil qilgan holda, belgilangan muddatlarda xato va kamchiliklarsiz to'liq qamrab olinishi ta'minlansin;

-1 AKT, 1 kom (kvartira) va 1 uy-joy yillik statistika hisobotlarining sifatli va xatoliklarga yo'l qo'yilmagan holda o'z vaqtida taqdim etilishi ta'minlansin;

-joriy yilning may oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha kuzatuvning to'liq va sifatli qamrovi ta'minlansin.

b) narx statistikasi tanlanma kuzatuv ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha:

-haftalik va oylik kuzatuvlar davomida o'rganilayotgan narxlarning haqqoniyligi hamda ularning belgilangan obyektlardan kuzatilayotganligi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirsin;

-narx kuzatuvlari jarayonini doimiy nazorat qilish maqsadida joylarga chiqish reja-jadvalini tasdiqlasin hamda har oy yakuni bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan Milliy statistika qo'mitasiga axborot taqdim etib borsin;

-hududiy soliq organlari bilan hamkorlikda muqobil ma'lumotlar manbalarini kengaytirish choralari ko'rsin. Bunda viloyat markazlarida kamida 2 tadan, tuman va shaharlarda esa 1 tadan yirik savdo va xizmat ko'rsatish majmualarida onlayn nazorat-kassa mashinalari cheklari sifatini oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, uning natijalari yuzasidan har oyda Milliy statistika qo'mitasiga axborot taqdim etib borilsin.

v) tadbirkorlik subyektlarini kuzatuv ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha:

-oylik choraklik va yillik hisobotlarni taqdim etmagan subyektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vaqtida tegishli choralar ko'rib borilsin;

-1 korxona yillik hisoboti qamrovi va sifatini to'liq ta'minlash maqsadida barcha hududlarda tadbirkorlik subyektlariga mazkur hisobotni o'z vaqtida va sifatli taqdim etish zarurligi yuzasidan targ'ibot va tushuntirish ishlari amalga oshirilsin, shuningdek hisobotni to'g'ri to'ldirish bo'yicha metodik yordam ko'rsatilsin;

-hisobotlarni qabul qilish jarayonida sifat nazorati (logic va arifmetik tekshiruvlar) lozim darajada tashkil etilmaganligi uchun boshqarmaning sohaga mas'ul o'rinbosari (J.Ulashev)ning faoliyati qoniqarsiz deb baholanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

g) qishloq xo'jaligi va atrof-muhit statistikasi sohasi bo'yicha:

-bir hafta muddatda ro'yxatga olish ma'lumotlari va joriy hisobotlar o'rtasidagi tafovutlar inventarizatsiyadan o'tkazilib, nomuvofiqliklarning kelib chiqish sabablari (uslubiy yoki texnik) tahlil qilinsin;

-tafovutlar aniqlangan fermer xo'jaliklari va tashkilotlar kesimida qayta aloqa (verifikatsiya) tadbirlari tashkil etilib, ma'lumotlar joyiga chiqqan holda qayta o'rganilsin hamda statistik bazaga tegishli tuzatishlar kiritilishi ta'minlansin. Bunda asosiy e'tibor yer maydonlari, ekin turlari va chorva mollari soni bo'yicha ko'rsatkichlarning o'zaro muvofiqligiga qaratilsin;

d) investitsiyalar va qurilish statistikasi sohasi bo'yicha:

-barcha turdagi statistika hisobotlarining belgilangan muddatlarda to'liq qamrab olinishi hamda ma'lumotlarning haqqoniyligi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilsin;

-korxona va tashkilotlar to'g'risidagi ma'lumotlarning izchilligini ta'minlash maqsadida soliq ma'lumotlar bazasi bilan o'zaro taqqoslash (solishtirish) ishlari tizimli tashkil etilsin;

-yillik statistika hisobotlarini qabul qilish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda bartaraf etilib, yakuniy shakllantirish ishlari to'liq tugatilsin;

-qurilish ishlari hajmini shakllantirishda hamda kichik korxonalar ma'lumotlarini baholashda xalqaro ekspertlar tomonidan berilgan tavsiyalar asosida kuzatuvlar samarali tashkil etilsin.

y) sanoat va energetika sohasi statistikasi bo'yicha:

-hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining haqqoniyligini ta'minlash maqsadida yirik va kichik korxonalarga 12 korxona hisobotining sanoat statistikasiga oid qismini to'ldirish bo'yicha uslubiy va amaliy yordam ko'rsatilsin;

-12 korxona hisobotini qabul qilish jarayonida ma'lumotlarning mantiqiy nazorati kuchaytirilsin. Bunda korxonaning ichki iste'moli (101-satr), tayyor mahsulot qoldiqlari (203-satr) hamda mahsulot sotish hajmi (210-satr, 5-ustun) o'rtasidagi bog'liqlik majburiy ravishda taqqoslansin;

-4 KB tanlanma kuzatuv savolnomalarining sanoat korxonalari tomonidan sifatli to'ldirilishi ta'minlansin hamda ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida aniqlangan tizimli xato va kamchiliklar tezkor bartaraf etilsin.

yo) uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi ma'lumotlarini shakllantirish bo'yicha:

- ma'lumotlar sifati ustidan ichki nazorat kuchaytirilsin;
- manzilli o'rganishlar hamda real vaqt rejimida qayta aloqa (feedback) tizimi yo'lga qo'yilsin;
- xatoliklar shakllanish bosqichidayoq aniqlanib, ularni tezkor bartaraf etish choralari ko'rilsin.

j) ijtimoiy soha statistikasi bo'yicha:

-hisobotlardagi xato va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishni ta'minlamaganligi uchun boshqarmaning sohaga mas'ul o'rinbosari (M.Salimov) ogohlantirilsin;

-boshqarma boshlig'i o'rinbosari (M.Salimov) aniqlangan xato va kamchiliklarni bir oy muddatda to'liq bartaraf etilishini ta'minlamagan taqdirda, egallab turgan lavozimiga loyiqligi masalasini ko'rib chiqilishi belgilab qo'yilganligi yuzasidan ogohlantirilsin.

z) demografiya, mehnat va gender statistikasi bo'yicha:

-4 mehnat hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmagan 15 ta (0,4 %) respondentlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy Javobgarlik to'grisidagi Kodeksning tegishli moddalariga muvofiq choralar ko'rilishini ta'minlasin;

joriy yilning 1-iyun sanasiga qadar aholini ro'yxatga olish natijalari amaldagi demografik ko'rsatkichlar bilan solishtirilib, tahlil qilinib, tegishli ma'lumotlar shakllantirilsin.

5.Boshqarmaning tegishli tarmoq bo'limlari hamda tuman va shahar statistika bo'limlari boshliqlari:

-har bir hisobot shakli bo'yicha hisobotlar qamrovining to'liqligi va sifatli ta'minlanishi yuzasidan ishlarni yanada kuchaytirsinlar. Bunda respondentlar bilan oldindan tushuntirish ishlari samarali tashkil etilib, ularga belgilangan tartibda eslatma va ko'rsatma xatlari yuborilishi ta'minlansin hamda bu borada qat'iy nazorat o'rnatilsin;

-hisobot taqdim etmagan respondentlar hamda hajmsiz hisobot taqdim etgan korxonalar faoliyatiga to'liq aniqlik kiritilsin, shuningdek hisobot taqdim etish tartibini buzgan subyektlarga nisbatan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy ishlar yuritilishi ta'minlansin;

-hududiy statistika organlarida statistika faoliyatini tashkil etish, hisobot va ijro intizomini ta'minlash, hujjatlar bilan ishlash, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish masalalari bo'yicha muntazam o'rganishlar o'tkazilsin hamda natijalari tanqidiy muhokama qilib borilsin. Kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul rahbarlar va xodimlarga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishi ta'minlansin.

6.Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari, tuman va shahar statistika bo'limlari boshliqlari:

-konsalting xizmatlaridan kelib tushgan mablag'lar hamda faoliyatning eng muhim ko'rsatkichlari (KPI) to'lovlarini belgilangan muddat hamda tartibda, shuningdek barcha xodimlarni xabardor qilgan holda amalga oshirilishi ustidan

qat'iy nazorat o'rnatish;

- tashkilot kompyuter va boshqa qurilmalarida jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan raqamli imzo va ma'lumotlarni saqlanmasligini ta'minlash;

- doimiy tarzda korrupsiyaga qarshi huquqiy targ'ibot va vizual tadbirlarni amalga oshirib borilishini tashkil etsin;

- xodimlarni statistika dasturi hamda lavozim yo'riqnomasida nazarda tutilgan mehnat, hisobot va ijro intizomiga rioya etilishini ta'minlash.

7.Statistika ishlarini tashkil etish va ma'lumotlarni tarqatish bo'limi boshlig'i (O.Romonov):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-27-son Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75-son qarori hamda 2026-yil uchun statistika dasturi ijrosini o'z vaqtida ta'minlash choralarini ko'rsin.

8.Axborot xizmati bo'yicha bosh mutaxassis (M.Buriyeva) tuman va shahar statistika bo'limlari boshliqlari:

- ommaviy axborot vositalari uchun matbuot anjumanlari o'tkazish, hududlar kesimida dolzarb statistik ma'lumotlar va sohadagi yangiliklar yuzasidan matbuot anjumanlari hamda brifinglar tashkil etsin;

- ta'lim muassasalarida davra suhbatlari tashkil qilish, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida statistika sohasi, uning ahamiyati va amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan uchrashuv va davra suhbatlarini o'tkazish orqali yoshlar o'rtasida statistik savodxonlikni oshirsin;

- infografika va videoroliklar tayyorlash va yoritish Rasmiy statistika ma'lumotlari asosida sodda, tushunarli va qiziqarli infografik roliklar tayyorlab, ularni ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy telekanallar orqali keng yoritilishini ta'minlash.

9.Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov):

- boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlarida kompyuter texnikasidan maqsadli foydalanish hamda qurilmalar (kompyuter, planshet) xotirasida begona shaxslar yoki tashkilotlarga tegishli ERI kalitlarini saqlamaslik ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

- aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlari uchun ajratilgan planshet qurilmalarining texnik sozligi va mavjudligini xatlovdan o'tkazib, natijasi bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etsin;

- ish joyida internet tarmog'idan shaxsiy maqsadlarda foydalanishni qat'iy man qilish va har bir xodimning internet tapmog'idagi faoliyatini doimiy monitoringini olib borsin.

10.Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov), Ro'yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish bo'limi (F.Shukurov), Raqamlashtirish va statistik registrlarni yuritish bo'limi (U.Sadirov) va Qishloq xo'jaligi va atrof muhit statistikasi bo'lim'i (J.Dustmurodov) hamda tuman va shahar statistika bo'limlari:

- aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish jarayonida jamlangan

ma'lumotlarni doimiy ravishda tahlil qilib borsin;

-ro'yxatga olish jarayonida savolnomaning 6-shaklidagi ma'lumotlar tahlilini yakuniga yetkazsin hamda 5-shakldagi birlamchi ma'lumotlarning sifati va ishonchliligini tanlanma kuzatuvlar asosida tahlil qilish ishlarini tashkil etsin;

-ro'yxatga olish jarayonlarida xatlovdan o'tkazilgan va amalda mavjudligi aniqlangan, biroq GAT (geoaxborot tizimi) xaritalarida aks ettirilmagan ko'chalar va obyektlarni tizimga to'liq kiritish choralari ko'rsin.

-2026-yil mart oyida ro'yxatga olish natijalarining aniqligi va qamrov darajasini baholash maqsadida o'tkazilgan nazorat kuzatuv (Post Enumeration Survey — PES) natijalarini tizimli tahlil qilsin.

11.Buxgalteriya hisobi va moliyaviy ishlar bo'limi (N.Normatova):

-aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirlariga jalb etilgan "mahalla yettiligi" a'zolari hamda boshqa xodimlarga bajarilgan ishlar uchun hisoblangan rag'batlantirish mablag'larining to'liq va o'z vaqtida to'lab berilishini ta'minlasin;

-to'lov jarayonlari bilan bog'liq masalalar yuzasidan "mahalla yettiligi" a'zolaridan kelib tushayotgan murojaatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish va ularga asoslantirilgan javob berish choralari ko'rsin;

-to'lov jarayonlarida mablag'larning maqsadli va manzilli sarflanishini nazorat qilib, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan moliyaviy xarajatlar bo'yicha yakuniy hisobotni qo'mita rahbariyatiga taqdim etsin.

12.Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul (O.Berdimurodov):

-tasdiqlangan seminarlar grafigi asosida, korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiya holatlarini oldini olish yuzasidan qabul qilingan qonun hujjatlari, korrupsiya holatlarining salbiy oqibatlari bo'yicha profilaktika ishlarini doimiy tashkil etib borsin;

-bunda asosiy e'tibor statistika hisobotlarini qabul qilish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida "inson omili"ni kamaytirish hamda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik masalalariga qaratilsin;

-xodimlar o'rtasida korrupsiya holatlarining salbiy oqibatlari to'g'risidagi qonunchilik tapg'iboti uchun shaxsan javobgar ekanliklari to'g'risida ogohlantirilsin.

-korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berish imkonini beruvchi "Aloqa kanallari" (ishonch telefoni, bot va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlarning barcha hududiy bo'limlarda ko'rinarli joylarga joylashtirilishi ta'minlansin.

-har chorak yakuni bo'yicha qo'mita rahbariyatiga tizimdagi korrupsiya xavf- xatarlari tahlili yuzasidan axborot kiritib borsin.

13.Boshqarmaning ma'naviyat va davlat tili bo'yicha mas'ul xodimi (F.Shukurov):

-boshqarma bo'linmalari hamda tuman va shahar statistika bo'limlari boshliqlari bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni va Davlat rahbari boshchiligidagi 2023-yil 22-dekabr kuni bo'lib o'tgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan

vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlash choralari ko'rsin;

-hududiy bo'limlarga joyiga chiqqan holda, ish binolari peshlavhalari (tashkilotning qayta tashkil etilgan nomi), devoriy ma'lumotlar va rasmiy hujjatlar (tashkilotning yangi ish blankasi, muhr va shtamlari) bilan ishlashda Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rgansin;

-amalga oshirilayotgan ishlar natijalari yuzasidan rahbariyatga muntazam axborot kiritib borsin.

14.Tizim faoliyatida rasmiy hujjatlarni yuritishda davlat tili talab va me'yorlariga muvofiqlikni to'liq ta'minlash hamda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish qo'mita va hududiy statistika organlari rahbarlari va mas'ul xodimlarining asosiy vazifalaridan ekanligi qayd etilsin.

2026-yilning I-chorak yakunigacha boshqarmada davlat tilida ish yuritish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul mutaxassis (F.Eshonqulov) yuklatilgan vazifalarni to'liq bajarmaganligi va ish faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'yganligi uchun unga yuklatilgan vazifalar bo'yicha avvalgi buyrug'i bekor qilinganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

15.Bosh yuriskonsulti (O.Berdimurodov):

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4551-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tizimida 2019-yil 17-dekabrda tasdiqlangan 01/1-01-26-29-sonli chora-tadbirlar rejasining 2-bandi ijrosi yuzasidan har hafta juma kuni belgilangan tadbirlarni o'tkazib, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotlari haftaning dushanba kuniga qadar qo'mitaning Yuridik bo'limiga taqdim etib borsin;

-huquqiy targ'ibot hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan veb-saytga haftalik tapg'ibotlarni joylashtirib borsin.

16.Boshqarma va uning hududiy bo'limlari, korrupsiyaga qarshi kurashish va unga yo'l qo'ymaslikka oid qabul qilingan qonun hujjatlari hamda bu borada qo'mita tomonidan belgilangan vazifa va chora-tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash borasida barcha zarur tashkiliy va amaliy choralarni ko'rsinlar.

Mansab vakolatlarini suiiste'mol qilgan, korrupsiya holatlariga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan jonoiy javobgarlikka tortilishi muqarrar ekanligi to'g'risida qattiq ogohlantirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyuldagi "Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-117-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi "“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" PQ-5132-son qarorida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi qat'iy nazoratga olinsin;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-apreldagi "Aholi bilan muloqot tizimini samarali tashkil qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida" PF-51-son Farmoni doirasida amalga oshirilgan ishlarni Kengash yig'ilishlarida muhokama qilish uchun kiritib borsinlar.

17. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarlari (J.Ulashev, M.Salimov) o'zlari mutasaddi bo'lgan bo'linmalarda mehnat, ijro va hisobot intizomini mustahkamlash, faoliyat samaradorligini oshirish hamda belgilangan vazifa va topshiriqlar ijrosini to'liq va sifatli tashkil etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsinlar.

18. Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassis (F.Sattarov):

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari, Hukumat qarorlari hamda Milliy statistika qo'mitasi topshiriqlari ijrosini ta'minlash, hujjatlar bilan ishlash, ijro intizomini mustahkamlash va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha belgilangan vazifalar va chora-tadbirlarning barcha darajadagi tizim organlarida to'liq va sifatli ijro etilishi yuzasidan nazoratni yanada kuchaytirsin;

- tizim organlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari va hujjatlari, Shuningdek hukumat qarorlarini hamda Milliy statistika qo'mitasi topshiriqlarini bajarish bo'yicha ijro intizomi holatini kunlik nazorat qilish orqali, ijro holatini tanqidiy muhokama etib borish ishlarini tashkil etilishi yuzasidan doimiy monitoring olib borsin.

19. Kengash yig'ilishi qarorlari ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bayon yozuvchi



O. Romonov

